

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SINING BADIY AHAMIYATI VA “HAYRAT - UL ABROR” DOSTONINING HAMD VA NA'T BOBLARI TASNIFI

Almardanova Iroda Toshmamatovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
iroda_almardanova@tues.uz
ORCID: 0009-0005-5311-6095

Xusanova Mahliyo Abdunazarovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili 3-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785534>

Annotatsiya. Maqola Alisher Navoiy “Xamsa” asari badiiyati va “Hayrat ul-abror” dostonida keltirilgan hamd va na't boblarning alohida tasnifi va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Shu bilan birga ulug' shoirgacha Xamsachilik an'analarining poetik xususiyatlari, “Hayrat ul-abror” dostonining mohiyati asarda keltirilgan boblar va maqolatlar, ularning kirish qismlari haqida ham ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Xamsa, doston, hamd, na't, maqolat, munojot, hikoyat.

Аннотация. Статья направлена на выявление художественного значения «Хамсы» Алишера Навои и отдельную классификацию хвалебных и нат-глав в эпосе «Хайрат-уль-Аброр», а также его социально-философской сущности. Одновременно с этим, в работе рассматриваются поэтические особенности традиции Хамса вплоть до великого поэта, суть поэмы «Хайрат аль-аброр», упомянутые в произведении главы и статьи, а также их вступительные части.

Ключевые слова: Хамса, поэма, восхваление, поэзия, статья, молитва, рассказ.

Annotation. The article is aimed at revealing the artistic significance of Alisher Navoi's “Khamsa” and the separate classification of the praise and na't chapters in the “Khayrat ul-abror” epic and its socio-philosophical essence. At the same time, the poetic features of the Hamsa tradition up to the great poet, the essence of the poem “Khairat ul-abror”, the chapters and articles mentioned in the work, and their introductory parts are also provided.

Keywords: Hamsa, poem, praise, poetry, article, prayer, story.

Kirish. Sharq epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'langan. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib “Xamsa” yozgan buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy edi. U 1170-1204 yillar oralig'ida birin-ketin 5 doston yaratdi. Doston “Panj ganj” deb ataldi [4.54]. Oradan bir asr vaqt o'tgach Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi va xamsachilik an'anasini boshlab berdi. 1299-1302-yillarda “Xamsa”sini yozib uni Alouddin Xijiliyga taqdim etadi. Jomiyning “Bahoriston”ida e'tirof etilishicha “Hech kim Nizomiy “Xamsa”siga Dehlaviydan o'tkazib javob yoza olmagan”. Shundan so'ng 1414- 1492 yillarda Abdurahmon Jomiy yeti dostonidan iborat “Haft avrang” dostonini yaratadi [4.67]. Xamsachilik tarixida XV asr Hirot adabiy muhiti alohida o'rin tutadi. Navoiy “Xamsa”si boshqa dostonlardan turkiy tilda yozilganligi bilan ajralib turadi hamda Navoiy “Xamsa” asarini qisqa vaqtda 1483-

1485 yillar oralig'ida yozib tugallaydi. Navoiy "Xamsa"si jahon adabiyotining noyob va o'lmas durdonasidir [4.72].

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston mustaqillikka erishishi, jamiyat hayotidagi tub o'zgarish va erkinlik tufayli Navoiy asarlari o'zining asl talqinini topa boshladi, shoir merosini o'rganishini yangi ufqlari ochildi. S.Hasanovning "Navoiyning yetti tuhfasini" (1991), M.Muhiddinovning "Ikki olam yog'dusi" (1991), H.Qudratullayevning "Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari" (1991), A. Hayitmetovning "Navoiyxonlik suhbatlari" (1993), "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" (1996), Alisher Navoiy "Xamsa" si tarkibiga kiruvchi besh doston 2006-yillarda nasriy bayoni bilan G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan lotin yozuvida nashr etildi. 2011-yilda shoir asarlarining 10 jildlik To'la asarlar to'plami kirill yozuvida, 2013-yilda lotin yozuvida e'lon qilindi, "Xazoyin ul maoniy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi 4 devon (TAMADDUN, 2011, nashrga tayyorlovchi-O. Davlatov) lug'at, izoh va sharhlari bilan nashrdan chiqdi. Alisher Navoiy tavlludining 575 yilligi munosabati bilan "Sharq" sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati bir guruh navoiyshunoslar tomonidan tayyorlangan ikki jildli "Alisher Navoiy: qomusiy lug'ati"ni nashr etdi. Bu nashr nafaqat navoiyshunoslikda emas, balki milliy qadriyatlarimiz va boy adabiy merosimizni o'rganish, ma'naviyatimizning tarkibiy qismi hisoblangan o'zbek mumtoz adabiyoti va tilining durdonalarini tadqiq etishda ham kitobxonlar uchun munosib tuhfa bo'ldi [4.14]. 2016-yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti har yili shoir tavalludi arafasidagi "Alisher Navoiy va XXI asr" an'anaviy ilmiy-nazariy konferensiyasini o'tkazishni yo'lga qo'ydi [4.14].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat - ul abror" dostonining hamd va na't boblari mumtoz adabiyot manbalari an'analari binoan zikr qilinganligi, o'ziga xos poetik xususiyat ifodasi sifatida tahlili qilindi.

Tahlil va natijalar. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o'zining adabiyotga daxldor asarlari va benazir ilmi bilan turkiy xalqlarning ma'naviy siymosini yarata olgan so'z san'atkoridir hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g'oyalari bugungi kun uchun juda dolzarbdir. Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o'zining hassos she'riyati buyuk "Xamsa"si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag'ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so'z ijodkoridir. O'z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug'at boyligidan foydalangan. Turkiy tilda 45 ming misradan ortiq asar yaratgan. Bu ham ulug' shoirning buyuk daho va so'z mulkingning sultoni ekanligining isbotidir. Alohida qayd etish kerakki, Shoirning noyob "Xamsa" asari butun dunyoga mashhurdir. Dunyoning tilshunos va adabiyotshunos professor olimlari Navoiy "Xamsa" si ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Navoiy asarlarini Abdurauf Fitrat birinchi bo'lib o'rgangan olimlardan biridir. Bugungi kunga qadar Navoiy ijodini o'rganishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan shular orasida Navoiy ijodiga bir qancha dissertatsion ishlar ham amalga oshirilgan jumladan, V.Abdullayevning "Alisher Navoiyning hayoti va Samarqanddagi

adabiy faoliyati” (1941), I.Sultonovning “Navoiyning “Mezon ul-avzon” va uning kritik teksti” (1947) O.Usmonovning “Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari haqida” (1947) S. Mirzayevning “Navoiy aruzi” (1948), A. Sadiyning “Navoiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojida yuksak bosqich sifatida” (1949) kabi olimlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Navoiy “Xamsa”siga ta’rif berilganda uning tarkibiy qismlarini sanab o‘tish lozim. Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul abror” (yaxshi kishilarning hayratlanishi), ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin”, uchinchi dostoni “Layli va Majnun”, to‘rtinchi dostoni “Sabai’ Sayyor”, beshinchi dostoni “Saddi Iskandariy” deb nomlanadi. Insonlarni ma’naviyatini uyg‘otuvchi, yaxshilikka chorlovchi va qalbini hayratga soluvchi “Hayrat ul abror” dostoni “Xamsa”ning birinchi dostoni hisoblanadi. Asar 1483-yilda yozilgan. Doston 3988 baytdan iborat. Nizomiyning “Maxzan ul-asror”, Dehlaviyning “Matla ul-anvor” hamda Jomiyning “Tuhfat ul ahror” dostonlariga javob tariqasida yozilgan. Asar 83 bob, 20 ta maqolat va 20 ta hikoyatdan tashkil topgan. Shundan muqaddima qism 21 bobni o‘z ichiga oladi. Dostonning boshlanishi “Bismillahir rohmahir rohim” (“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman”) oyatining shoirona talqiniga bag‘ishlanganligi sababli “basmala bobi” deb ham ataladi. Bu bob nafaqat “Hayrat ul-abror” balki, umuman “Xamsa” uchun ham kirish vazifasini o‘taydi, chunki keying dostonlarda biz bu ilohiy jumlaning uchratmaymiz. Shuningdek, Salaflarda “Xamsa” ni “Bismillah” oyati bilan boshlash an’ana tusiga kirgan.

Hazrat Navoiy dastlabki 12 baytni “Bismillah” oyatining umumiy tavsifiga bag‘ishlaydi: oyat o‘z shakli va mohiyatiga ko‘ra butun Borliqning nizomini ushlab turuvchi “Jahon rishtasi” abadiylik xazinasiga eltuvchi sinoatli tasbih, ham dunyo ham oxirat saodatini sayd etuvchi arqon, obihayot oquvchi ariq, Arshi a’loni yorituvchi qandilga o‘xshatiladi. Navoiy o‘z asarlarida kitobat san’atidan mohira foydalangan buyuk shoirdir. U vahdad (Alloh taoloning Bir-u Borligi) xazinasiga eltuvchi yo‘l sifatida ta’riflangan. Bismillahdagi har bir harfga ikki toifa - ahli qabul” (qabul etganlar) va ahli rad (inkor qilganlar) uchun alohida - alohida ma’no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to‘xtalinar ekan ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Sin” harfi haqida gapirilganda, uning shakli nahang balig‘ining umurtqa suyagidagi arradek bo‘lib rad etuvchilar uchun ofatdek; “Mim” harfi ilon nafasidek o‘t sohib, yo‘l boshida og‘zini ochgan holda yotadi, degan tashbihlardan foydalanadi. Ikkinchi toifa ya’ni qabul qiluvchilarga to‘xtalganda endi bu harflarning ijobiy ma’no kasb etadi. Xususan, “Sin” harfi salomatlik yo‘lagining zinasiga o‘xshatilsa “Mim” harfi esa maqsad manzilidagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko‘rish mumkin. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy mahorati namoyon bo‘ladi. Dostonning ikkinchi bobi Xoliq, ya’ni Alloh taoloning hamdiga bag‘ishlanadi. Hamd “arabcha najot so‘ramoq”, Buyuk Alloh taolodan gunohlarini kechirishini so‘ramoq demakdir. O‘z navbatida hamdlarni ikki guruhga ajratadi. Tavhid hamdlari va Munojot hamdlari. Tavhid hamdlarida inson Alloh taoloni Borligi va Birligiga butun qalbi

bilan ishonadi. Munojot hamdlarida esa inson qilgan gunohlari uchun Alloh taolodan kechirim so‘rab avf etishini iltijo qiladi. Navoiy boblarida alohida urg‘u berib o‘tiladi [4.74]. Dostonning 3-6 boblari (to‘rt) bob munojotlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi munojotda Alloh taoloning Bir-u Borligi, Haq taolo o‘z Zotiga mazhar - ko‘zgu yaratish maqsadida olamni yo‘qdan bor qilgani haqida so‘z yuritiladi [4.74]. Ikkinchi munojotda esa, Alloh olamdagi jamiyki mavjudodlarning yaralish va foniylikka yuz tutish jarayoni davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jamiyki voqea va hodisalarning o‘z ilmi, irodasi va qudrati bilan tasarruf etishi, azaliylik va abadiylik faqat Allohga xos ekanligi haqiqiy iloh faqat uning o‘zi ekanligi, olamdagi barcha mavjudod faqat unga iymon keltirishi bayon etilgan. Uchinchi munojotda olam ahlining qiyomat kunidagi ahvoli tasvirga tortilib, o‘sha kuni oxirzamon payg‘ambari-Muhammad mustafo (s.a.v) Haq taolo izni bilan musulmon ummatlarini shafolat qilishi, Navoiy ham bu shafotdan umidvor ekanligi qayd etilgan. Adabiy an‘anaga ko‘ra mujotdan so‘ng na‘t qismi keladi. Na‘t Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. ga maqtoov aytish salovat aytish demakdir [4.76]. Dostonda 5 ta na‘t keltirilgan. Birinchi na‘tda tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra “Nuri Muhammadiya” nazariyasiga to‘xtaladi. Unda “Odam Ato unga ham o‘g‘il, ham ota” degan tushuncha ta‘rifi beriladi. “Nuri Muhammadiya”ga ko‘ra Alloh barcha olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan bo‘lib, shu nur tufayli olamni va odamni yaratgan. Demak, Odam Ato ham Muhammad nuridan bino bo‘lgan. Shuning uchun hazrat Muhammad (s.a.v) Odam Atoga ham ota, ham o‘g‘ildir. Ikkinchi na‘tda payg‘ambarimiz (s.a.v) ning tug‘ilishlari, bolalik paytlarida otadan ayro qolishlari, savdogarlik bilan shug‘ullanganlari, hali payg‘ambarlik maqomiga erishmagan paytlarida ham o‘z xulqlari bilan qabiladoshlari orasida yuksak mavqega ega ekanliklari haqida va uchinchi na‘tda Payg‘ambarimiz (s.a.v) ning payg‘ambarliklariga dalil bo‘lgan hodisalar - U zotning soyasiz bo‘lganliklari, Oyni ishorat barmog‘i bilan ikkiga bo‘lganliklari, xat-savodsiz bo‘lgan holatlarida olamning jamiyki hikmatlarida bohobar bo‘lganliklari, butun olamlarga rahmat qilib yuborilgan payg‘ambarliklari haqida so‘z yuritiladi [4.76]. Beshinchi na‘t esa an‘anaga muvofiq, meroj kechasining ta‘rifiga bag‘ishlangan. Oxirzamon payg‘ambarining mo‘jizalari ko‘p bo‘lsa ham u Zotning ikki mo‘jizasi-me‘roj va shafot hodisasi badiiy adabiyotlarda alohida tilga olinadigan mavzu hisoblanadi. Aynan me‘roj hodisasi sodir bo‘lganidan keyin kufr va iymon chegarasi aniq bo‘ldi- bu hodisaga ishonganlar musulmon, ishonmaganlar kofir degan ilohiy hukm nozil bo‘ldi. Shafot masalasi esa, islom payg‘ambarining mo‘jizalari qiyomatgacha davom etishi, ummatining gunohini shafot qilish imkoniyati faqat Muhammad (s.a.v) ga berilganligining isboti hisoblanadi. Alisher Navoiy fikricha, “Haq sirrining mahrami” qilib yaratilgan inson Allohni ma‘rifat orqali tanishi kerak” [4.24]

Uchinch ulki, chun Xoliqi zuljalol,
Ki, ham lamyazal keldi, ham loyazal.
Chu lavhi vujud uzra tortib qalam,

Iki kavn tarhig‘a urdi raqam...
Emas erdi maqsud juz odamiy
Ki, Haq sirrining bo‘lg‘ay ul mahrami.
Baridin g‘araz garchi inson edi,
Anga dag‘i maqsud irfon edi.

Tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra, Allohni tanish 2 yo‘l orqali amalga oshiriladi: 1. Haqdan jazba yetishi, ya‘ni Alloh yodi bilan o‘zligidan bexabar bo‘lib yurish, maqomlarni egallamasdan turib, holmartabasiga erishish. Bu yo‘lni Navoiy “majzubi solik” yo‘li deb ataydi. 2. Pirga qo‘l berib, uning irodasi bilan riyozat chekish va undan so‘nggina jazba yetishi, bunda avval tariqatdagi maqomlarni bosib o‘tgandan keyingina hol martabasiga erishiladi. Bu yo‘lni Navoiy “soliki majzub” deb ataydi. Navoiy birinchi yo‘lga erisholmagach, piri komil topib, o‘zini unga topshirishga qaror qiladi [4.25].

Xulosa. Navoiy o‘z ijtimoiy faoliyati haqida asar yozib qoldirmagan bo‘lsada, uning asarlarida shoir haqida ma‘lumotlar olish mumkin. Navoiy asarlari orqali insonni Haqni tanishga komil inson darajasiga erishuviga chorlaydi. Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblari nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so‘nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug‘at ishlanganligi Shoirning ulug‘ligi va asarlarining qimmatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avaznazarov. O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: 2024.
2. Komilov. N Tasavvuf va komil inson axloqi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2005.
3. Qayumov. A Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband... – Toshkent: Fan, 2000.
4. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 520.